

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH Tajribasi.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR Tajribalari.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asaxon Saliyevna	



YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI

Jamaldinova Asalxon Saliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy statistika kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.

Email: asalzamaldinova@gmail.com

ORCID: [0009-0007-5326-3073](https://orcid.org/0009-0007-5326-3073)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, uning nazariy-metodologik asoslari hamda ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan an'anaviy "jigarrang" iqtisodiyot modelidan yashil iqtisodiyotga o'tishning obyektiv zaruriyati, bu jarayonda yuzaga keladigan institutsional, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, "yashil" texnologiyalar, chiqindilarni boshqarish, "yashil" investitsiyalar, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, energiya samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the concept of the green economy as one of the priority directions of modern economic development, its theoretical and methodological foundations, and the mechanisms for ensuring harmony between environmental sustainability and economic efficiency. The author scientifically substantiates the objective necessity of transitioning from the traditional "brown" economic model to a green economy, highlighting the institutional, technological, and socio-economic transformations arising in this process. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed for promoting the green economy in Uzbekistan, ensuring environmental sustainability, and achieving economic efficiency.

Key words: green economy, environmental sustainability, renewable energy, green technologies, waste management, green investments, sustainable development, climate change, energy efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализирована концепция «зеленой» экономики как одного из приоритетных направлений современного экономического развития, её теоретико-методологические основы, а также механизмы обеспечения гармонии между экологической устойчивостью и экономической эффективностью. Автором научно обоснована объективная необходимость перехода от традиционной «коричневой» модели экономики к «зеленой» экономике, раскрыты институциональные, технологические и социально-экономические трансформации, возникающие в данном процессе. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по развитию «зеленой» экономики в Узбекистане, обеспечению экологической устойчивости и достижению экономической эффективности.

Ключевые слова: зеленая экономика, экологическая устойчивость, возобновляемая энергия, «зеленые» технологии, управление отходами, «зеленые» инвестиции, устойчивое развитие, изменение климата, энергоэффективность.

KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi insoniyat oldida tubdan yangi, murakkab va o'zaro chambarchas bog'liq global muammolarni yuzaga chiqardi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, havoning ifloslanishi hamda chiqindilar muammosi bugungi kunda nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va hatto geosiyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) tomonidan 2023-yil mart oyida e'lon qilingan yakuniy hisobotda qayd etilishicha, global haroratning sanoatlashtirishdan oldingi davrga nisbatan 1,5 darajaga oshishini jilovlash choralari yetarli darajada ko'rilmasa, 2040-yilga borib Yer yuzidagi ekotizimlarning qariyb 30 foizi qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu holat millionlab insonlarning turmush tarziga,



keng ko'lamdagi ekin maydonlarining hosildorligiga hamda butun mintaqalar iqtisodiyotining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Ana shunday tahdidlar sharoitida jahon hamjamiyatining "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga bo'lgan qiziqishi keskin ortdi. Mazkur konsepsiyaning mohiyati iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, aksincha, ularni uyg'unlashtirishdan iborat. Ya'ni iqtisodiy taraqqiyotni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga olib borish ko'zda tutiladi. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot — bu kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyotdir. Bunday iqtisodiyotda daromadlar va bandlik o'sishiga davlat hamda xususiy investitsiyalar hisobidan erishiladi. Mazkur investitsiyalar uglerod chiqindilari va ifloslanishni kamaytirishga, energiya va resurslar samaradorligini oshirishga, shuningdek, biologik xilma-xillik hamda ekotizim xizmatlarini asrashga yo'naltiriladi.

Statistik ma'lumotlar yashil iqtisodiyotning jahon miqyosida jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilgan global investitsiyalar hajmi 610 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu ko'rsatkich 2015-yilda qabul qilingan Parij kelishuvi davridagiga nisbatan qariyb ikki baravar yuqoridir. 2023-yil yakunlariga ko'ra, dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy o'rnatilgan quvvati 3 372 gigavattni tashkil etgan. Shundan 1 412 gigavatt gidroenergetika, 1 064 gigavatt quyosh energetikasi, 1 021 gigavatt esa shamol energetikasi hissasiga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 30 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hisobidan ta'minlanmoqda.

Mazkur jarayonlar nuqtayi nazaridan O'zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy zarurat hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida aholisi eng ko'p va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlardan biridir. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 5–6 foiz sur'atlarda o'sib bormoqda. Sanoat ishlab chiqarishi, xususan, energetika, kimyo, neft-gaz va konchilik tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish jarayoni ekologik yuklamaning ortishiga ham olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi yiliga 2,1 million tonnani tashkil etadi. Sanoat korxonalari va avtotransport vositalari chiqindilarining ma'lum qismi belgilangan me'yoriy talablarga to'liq javob bermaydi. Suv resurslarining ifloslanishi, ayniqsa Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyat, alohida e'tibor talab qiladi. Chorva mollari sonining ortishi hamda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kengayishi tuproq degradatsiyasi va cho'llanish jarayonlarining tezlashishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Aynan shu omillar mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, bu borada erishilgan natijalar hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik uyg'unligini ta'minlaydigan yashil iqtisodiyot modelining O'zbekiston uchun strategik ahamiyatini yoritish hamda uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Mahalliy olimlar orasida Mirziyoyev, Sh. (2020) yashil iqtisodiyotning ahamiyatini davlat siyosati nuqtai nazaridan tahlil qilib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirish mexanizmlarini ko'rsatadi. Qodirov, B. (2018) esa yashil iqtisodiyot konseptlarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini amaliy va ilmiy jihatdan muvozanatli tarzda sharhlaydi. Shu bilan birga, Abdullaev, T. (2019) energiya resurslarining samarali ishlatilishi va qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishning iqtisodiy foydasini ta'kidlaydi, ekologik va iqtisodiy jihatlarni uyg'unlashtirish tarafdori sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy olimlar nuqtai nazaridan, Sachs, J. D. (2015) global miqyosda barqaror rivojlanish konseptlarini tushuntirib, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotning ahamiyatini misollar bilan ko'rsatadi. Pearce, D. va Turner, R. K. (1990) tabiat resurslarini iqtisodiy nuqtai nazardan baholash metodlarini ishlab chiqib, O'zbekiston kontekstida resurslarni samarali boshqarish konseptlariga asos yaratadi. Shuningdek, OECD (2011) hisobotida yashil o'sish va iqtisodiy barqarorlikni uyg'unlashtirishning global tajribasi tahlil qilinib, yechimlarni mamlakat darajasida moslashtirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, mahalliy olimlar ekologik barqarorlikni milliy sharoitga mos amaliy yechimlar bilan yondashsa, xorijiy olimlar global tajriba va metodologik asoslarni taqdim etadi. Shu tariqa, O'zbekiston yashil iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy va xorijiy yondashuvlar uyg'unlashgan holda tadqiqotlar va amaliy loyihalarga asos bo'lishi mumkin.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Yashil iqtisodiyot: ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik uyg'unligi” mavzusidagi mazkur tadqiqotning metodologik asosini kompleks, ko'p bosqichli va fanlararo yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot davomida qo'yilgan maqsad va vazifalarning murakkabligi, ularning iqtisodiy, ekologik, texnologik hamda ijtimoiy jihatlarining kesishgan nuqtasida joylashgani bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlarni uyg'unlashtirishni taqozo etdi. Zero, yashil iqtisodiyot konsepsiyasining o'zi ham tabiatan fanlararo xususiyatga ega bo'lib, uni faqat iqtisodiy fanlar doirasida yoki faqat ekologiya nuqtayi nazaridan o'rganish to'liq va xolis manzarani shakllantira olmaydi. Shu bois tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy nazariya, ekologiya, sotsiologiya, statistika hamda huquqshunoslik fanlarining uslubiy vositalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik iqtisodiyot nazariyasi hamda institutsional o'zgarishlar nazariyasi tashkil etadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan “Barqaror rivojlanish sohasidagi 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan kun tartibi” hujjati, xususan, uning 7-maqsadi (toza va arzon energiya), 11-maqsadi (barqaror shaharlar va aholi punktlari), 12-maqsadi (mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) hamda 13-maqsadi (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) tadqiqotning konseptual asosini belgilab berdi. Ekologik iqtisodiyot nazariyasi doirasida amerikalik iqtisodchi Herman Dalining “barqaror iqtisodiyot” haqidagi qarashlari, britaniyalik iqtisodchi Kate Raworthning “donut iqtisodiyoti” modeli hamda britaniyalik ekolog-iqtisodchi Ernst Fridrix Shumaxerning “Kichik — go'zal” konsepsiyasi muhim metodologik ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning empirik asosini to'rtta manba tashkil etadi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2015–2024-yillar oralig'ida e'lon qilingan “O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari”, “Sanoat ishlab chiqarishi”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari holati”, “Chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash” kabi statistik to'plamlari hamda hisobotlari. Ushbu manbalar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning hozirgi holati, uning tarmoq va hududiy tarkibi, dinamikasi hamda mavjud muammolari haqida birlamchi ma'lumotlarni taqdim etdi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2019–2024-yillardagi strategik dasturlari, idoraviy hisobotlari va tahliliy materiallari. Uchinchidan, Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA), Xalqaro energetika agentligi (IEA), BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energetika va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan global hisobotlari hamda ma'lumotlar bazalari. To'rtinchidan, muallif tomonidan 2024-yil fevral–mart oylarida Toshkent shahri, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma hamda ekspert intervyulari natijalari.

Tadqiqotning metodologik yechimida qo'llanilgan asosiy usullar quyidagilardan iborat.

Tizimli tahlil usuli. Yashil iqtisodiyot murakkab, ko'p tarmoqli va ko'p darajali tizim sifatida o'rganildi. Bunda iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi institutlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro hamkorlik subyektlari yagona tizim elementlari sifatida tahlil qilindi. Tizimli yondashuv yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi to'g'ridan to'g'ri va teskari bog'lanishlarni, sinergik samaralarni hamda tizimli nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini berdi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi nafaqat elektr energiyasi tannarxining pasayishi, balki import qilinadigan tabiiy gaz va neft mahsulotlarini tejash, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmining kamayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligining oshishi kabi omillar majmuasida baholandi.

Qiyosiy tahlil usuli. Mazkur usul orqali O'zbekiston tajribasi yashil iqtisodiyotga o'tishda yetakchi hisoblangan Germaniya, Daniya, Xitoy va Yaponiya tajribasi bilan solishtirildi. Har bir davlatni tanlashning o'ziga xos asosi mavjud. Germaniya sanoati rivojlangan va an'anaviy energetikaga tayangan iqtisodiyotni nisbatan qisqa tarixiy davr ichida “yashil” iqtisodiyotga transformatsiya qilgan davlat sifatida tanlandi. Uning “Energiewende” strategiyasi, huquqiy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlari chuqur tahlil qilindi. Daniya shamol energetikasini milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirib, ushbu yo'nalishda dunyo miqyosida muhim eksportchiga aylangan davlat sifatida e'tiborga olindi. Xitoy jadal sanoatlashuv jarayonida ekologik muammolarni hal etishda texnologik modernizatsiya va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan keng foydalangan tajribasi bilan ahamiyatlidir. Yaponiya esa resurslari cheklangan bo'lishiga qaramay, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni yaratgan davlat sifatida o'rganildi. Qiyosiy tahlil jarayonida har bir davlatning yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichlari, qabul qilingan strategik hujjatlari, joriy etilgan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari, erishilgan natijalari hamda uchragan muammolari o'rganildi. Bu esa O'zbekiston uchun maqbul modelni aniqlash imkonini berdi.

Muammoli yo'naltirilgan tahlil usuli. Ushbu usul orqali O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatayotgan omillar tizimli ravishda o'rganildi. Muammolar to'rt guruhga ajratildi: institutsional-huquqiy muammolar (normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi, idoralararo hamkorlik



samaradorligining pastligi, “yashil” standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi), iqtisodiy-moliyaviy muammolar (investitsiya resurslarining cheklanganligi, kredit mablag‘lari qiymatining yuqoriligi, “yashil” soliq va imtiyozlar tizimining to‘liq shakllanmaganligi), texnologik-infratuzilmaviy muammolar (zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi, energiya tejovchi uskunalar ishlab chiqarish hajmining pastligi, chiqindilarni qayta ishlash korxonalari sonining kamligi) hamda ijtimoiy-psixologik muammolar (aholi va tadbirkorlarning xabardorlik darajasining yetarli emasligi, resurs tejash madaniyatining sust rivojlanganligi, iste’mol stereotiplari). Har bir muammo bo‘yicha uning kelib chiqish sabablari, namoyon bo‘lish shakllari hamda bartaraf etish yo‘llari tahlil qilindi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotda tanlangan metodologik yondashuvlar majmui O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolari va istiqbollarini har tomonlama, xolis hamda chuqur tahlil qilish, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi. Keyingi bo‘limlarda mazkur metodologiya asosida olingan natijalar va ularning tahlili batafsil yoritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil iqtisodiyot: ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik uyg‘unligi” mavzusidagi ushbu tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holati, erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha keng ko‘lamli hamda chuqur tahliliy ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi. Tadqiqot natijalarini shartli ravishda olti yirik blokka ajratish mumkin: birinchidan, institutsional-huquqiy asoslarning shakllanish darajasi; ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi va energetika tizimidagi o‘zgarishlar; uchinchidan, energiya samaradorligi va resurs tejash ko‘rsatkichlari; to‘rtinchidan, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimining holati; beshinchidan, “yashil” moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi; oltinchidan, aholi va tadbirkorlarning yashil iqtisodiyotga munosabati hamda xabardorlik darajasi.

Institutsional-huquqiy asoslarning shakllanishi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning institutsional-huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha so‘nggi besh yil ichida muhim qadamlar tashlangan. 2019-yil 30-oktyabrda qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident qarori bu boradagi tizimli islohotlarning boshlanishi bo‘ldi. Strategiya hujjatida ilk bor yashil iqtisodiyotga o‘tishning aniq, o‘lchanadigan va vaqt bilan chegaralangan maqsadlari belgilandi: yalpi ichki mahsulot birligiga sarflanadigan energiya miqdorini ikki baravar kamaytirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish; barcha turdagi chiqindilarni qayta ishlash darajasini 60 foizga oshirish; 200 ming gektar maydonda energiya tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish.

Ekspertlar bilan o‘tkazilgan intervyular institutsional islohotlarning ijobiy jihatlarini bilan bir qatorda muammoli tomonlarini ham ko‘rsatdi. Energetika vazirligi mas‘ul xodimi bilan suhbat davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalari agentligi va hududiy elektr tarmoqlari kompaniyalari o‘rtasida vakolatlar chegarasi to‘liq belgilanmaganligi ma‘lum bo‘ldi. Xususan, “yashil” energiya ishlab chiqaruvchilarning umumiy tarmoqqa ulanishi, ortiqcha energiyani sotib olish tariflari hamda hisob-kitob mexanizmlari bo‘yicha hali kelishilmagan masalalar mavjud. Shuningdek, qonunchilikda energiya samaradorligi bo‘yicha majburiy talablar va ularni buzganlik uchun javobgarlik choralari yetarli darajada belgilab qo‘yilmagan.

“Yashil” moliyalashtirish mexanizmlari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda “yashil” loyihalarni moliyalashtirish tizimi shakllanish bosqichida. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan birinchi marta 100 million AQSH dollari hajmida “yashil” obligatsiyalar chiqarildi. Ushbu obligatsiyalar London Stock Exchange da joylashtirilib, xalqaro investorlar tomonidan yuqori qiziqish bilan kutib olindi. “Yashil” obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar qayta tiklanuvchi energetika loyihalari, energiya samaradorligini oshirish dasturlari va chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.

Tijorat banklari ham “yashil” kreditlash mexanizmlarini joriy eta boshlagan. 2024-yil boshiga qadar yirik tijorat banklari tomonidan 500 milliard so‘m miqdorida “yashil” kreditlar ajratildi. Mazkur kreditlar asosan quyosh panellari o‘rnatish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. “Yashil” kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari an‘anaviy kreditlarga nisbatan 3–5 foizga past.

Biroq, “yashil” moliyalashtirish tizimida qator muammolar mavjud. Birinchidan, “yashil” loyihalarni baholash va sertifikatlashtirishning milliy standartlari hali ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, “yashil” obligatsiyalar va “yashil” kreditlar bozorining infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Uchinchidan, mahalliy institutsional investorlar – sug‘urta kompaniyalari va pensiya jamg‘armalari – “yashil” moliyaviy instrumentlarga yetarlicha qiziqish bildirmayapti. To‘rtinchidan, ekologik soliqlar va to‘lovlar tizimi “yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish funksiyasini to‘liq bajarmayapti.



Muammolar va cheklovlar tahlili. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi asosiy cheklovlarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, davlat siyosatining yagona va yaxlit strategik hujjat asosida emas, balki turli vaqtlarda qabul qilingan hamda har doim ham o'zaro muvofiqlashtirilmagan qarorlar asosida amalga oshirilayotgani qayd etildi. Shuningdek, vazirlik va idoralar o'rtasida vakolatlar taqsimotining aniq belgilanmagani, idoralararo hamkorlik mexanizmlarining samarasizligi hamda mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyati yetarli darajada shakllanmaganligi institutsional muammolar sifatida baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlanganini va muayyan natijalarga erishilganini ko'rsatadi. Biroq institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik muammolarni bartaraf etish uchun kompleks, tizimli va uzoq muddatli yondashuv zarur. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati hamkorligi, shuningdek, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik uyg'unligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan ushbu tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan natijalar hamda ularning muhokamasi asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik masaladir. Mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, aholi sonining o'sishi, shaharlashuv jarayonlarining chuqurlashuvi hamda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi muqarrar ravishda tabiiy resurslarga bo'lgan talabni oshirmoqda va atrof-muhitga antropogen bosimni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning qulay iqlim sharoiti, quyosh va shamol energetikasining ulkan salohiyati, chiqindilarni qayta ishlash uchun yetarli xomashyo bazasi, shuningdek, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayishi yashil iqtisodiyotga tez va samarali o'tish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Mazkur omillar majmui yashil iqtisodiyotga o'tishni endilikda ixtiyoriy tanlov emas, balki ob'yektiv zaruratga aylantirganini anglatadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional-huquqiy asoslari shakllantirilgan va bu jarayon izchil davom etmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mazkur sohadagi islohotlarning strategik asosini belgilab berdi. Ushbu hujjat asosida qator qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, yangi institutlar – Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi agentligi, Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi hamda boshqa tuzilmalar tashkil etildi. Shuningdek, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri, "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun, "Bino va inshootlarning energiya samaradorligi to'g'risida"gi qonun kabi muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Biroq institutsional tizimni to'liq shakllangan va samarali faoliyat yuritmoqda, deb baholash hali erta. Vazirlik va idoralar o'rtasida vakolatlar taqsimoti aniq belgilanmagan, idoralararo hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada samarali emas, mahalliy hokimiyat organlarining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va mas'uliyati pastligicha qolmoqda. Shuningdek, strategik hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalar ijrosi ustidan tizimli monitoring hamda baholash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani kuzatiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishning muhim shartidir.

Uchinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi. Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida yirik quyosh elektr stansiyalarining ishga tushirilishi, Qoraqalpog'istonda shamol elektr stansiyasi qurilishining boshlanishi, xorijiy investorlar – Masdar, ACWA Power, China Energy kabi kompaniyalarning O'zbekiston bozoriga faol kirib kelishi sohada jiddiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy o'rnatilgan quvvati 2 400 megavattga yetdi, ularning umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi esa 10 foizni tashkil etdi.

Biroq ushbu yutuqlar fonida qator tizimli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energetika loyihalari asosan xorijiy investitsiyalar va xorijiy texnologiyalar hisobiga amalga oshirilmoqda, mahalliy kompaniyalarning ishtiroki esa cheklangan. Ikkinchidan, quyosh panellari, invertorlar va shamol turbinalari kabi uskunalarni ishlab chiqaradigan zamonaviy sanoat korxonalari yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa qo'shilgan qiymatning xorijga chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Uchinchidan, energiya saqlash tizimlarining keng joriy etilmagani qayta tiklanuvchi energiya manbalarini umumiy elektr tarmog'iga integratsiya qilish jarayonini murakkablashtirib, energetika tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda energiya saqlash texnologiyalarini joriy etish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish zarur.

Vanihyat, yashil iqtisodiyotga o'tish bir kunda yoki bir yilda amalga oshadigan loyiha emas. Bu uzoq muddatli, bosqichma-bosqich va avlodlar davomida kechadigan transformatsiya jarayonidir. Mazkur jarayonda



muvaaffaqiyatga erishish uchun strategik rejalashtirish, tizimli yondashuv, izchil siyosat, yetarli moliyaviy resurslar, malakali kadrlar, ilg'or texnologiyalar, xalqaro hamkorlik va eng muhimi, siyosiy iroda hamda jamoatchilik konsensusi zarur.

O'zbekiston so'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energetika sohasida erishgan yutuqlari, qabul qilgan strategik hujjatlari va boshlab yuborgan islohotlari bilan bu yo'nalishda qat'iyat va siyosiy iroda mavjudligini namoyon etdi. Endilikda ushbu ijobiy boshlanishni barqaror taraqqiyot modeliga aylantirish, yashil iqtisodiyotni nafaqat davlat strategiyasi, balki har bir vazirlik va idoraning, har bir korxona va tashkilotning, har bir fuqaroning kundalik amaliyotiga singdirish vazifasi dolzarbdir. Zero, yashil iqtisodiyot – bu kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimiz, ularga qoldiradigan merosimiz va ular yashaydigan O'zbekistonning bugungi kundagi rivojlanish qiyofasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida" O'RQ-539-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4346831>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023–2027-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejash texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari: 2018–2023. Statistik to'plam. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024. – 456 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston energetika balans: 2023. Statistik to'plam. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024. – 234 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish holati: 2023-yil hisoboti. – Toshkent: Ekologiya vazirligi, 2024. – 112 b.
7. Abdullaev A.Q., Yuldashev Sh.G. Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 320 b.
8. Ahmedov D.Q. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning iqtisodiy samadorligi. – Toshkent: Fan, 2021. – 248 b.
9. Bekmurodov A.Sh., Karimov I.T. O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirish muammolari va yechimlar. – Toshkent: TDIU, 2023. – 196 b.
10. G'ofurov U.R. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash: xorij tajribasi va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 184 b.
11. Jumaev N.X., Rasulov A.B. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 276 b.
12. Ismoilov F.E. Qayta tiklanuvchi energetika: texnologiyalar, iqtisodiyot, investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 312 b.
13. Karimov A.A. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: muammolar va istiqbollar. – Toshkent: Fan, 2023. – 208 b.
14. Normatov U.B. Yashil iqtisodiyotda investitsiya faoliyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 192 b.
15. Rahimov X.X. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 224 b.
16. Saidov M.X., Umarov E.U. Ekologiya va iqtisodiyot uyg'unligi: yashil rivojlanish konsepsiyasi. – Toshkent: Fan, 2022. – 268 b.
17. Xolmatov Sh.K. Yashil iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari. – Toshkent: TDIU, 2023. – 188 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>